

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 409 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI DOIRASIDA UNING INFRATUZILMASINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	244
Tashov Mizrob Maxmudovich	
DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	251
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
ФИНАНСЫ И ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	257
Айматова Фарида Хуразовна	
ZAMONAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI	263
Salayeva Dilafro'z Aybekovna	
ДИАГНОСТИКА СИНХРОННОГО ДВИГАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ИЗМЕРЕНИЯ ВНЕШНЕГО МАГНИТНОГО ПОЛЯ	267
Пирматов Нурали Бердярович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Мамуров Алмас Жумабой угли	
XORIJIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI	275
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СТОИМОСТИ КОМПАНИИ В СДЕЛКАХ СЛИЯНИЙ И ПОГЛОЩЕНИЙ	279
Ли Илларион Георгиевич	
KO'P YADROLI CPU VA GPU ARXITEKTURALARIDA DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI SONLI YECHISH UCHUN PARALLEL ALGORITMLARNI ISHLAB CHIQISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	284
Ismailov Shixnazar Rashid o'g'li, Ubaydullayev Farrux Fathulla o'g'li, Odilov Asliddin Isoq o'g'li	
СИСТЕМАТИЧЕСКОЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ — ОСНОВА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ	291
Муталов Абдуазим	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYALARNING HUDUDIIY TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	295
Ermamatov Shonazar Jumakulovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA SIYOSATI: INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI ISLOHOTLAR	302
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY SALOHIIYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	310
Tuyev Abdurahmon Yusubovich	
TEMIR YO'L STANSIYALARIDA STRELKALI O'TKAZGICH QURILMALARI BO'YICHA YO'L QO'YILGAN NOSOZLIKLAR VA ULARNING TAHLILI	315
Yunusova Gulshanoy Umarali qizi	



SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY FOND LARDAN VA ISHLAB CHI QARISH QUVVATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI.....	320
Ulashev Xubbim Askarovich	
TURLI YO'L SHAROITLARIDA TO'QNASHUV PAYTIDA TORMOZLASH VA BOSHQARUV PARAMETRLARI	324
Uralbayev Anvar Ubaydullayevich	
YANGI YARATILGAN MAHALLIY DURAGAY PILLALARNI YAKKA CHUVISH NATIJALARINING TAHLILI.....	328
Sobirov Qo'ziboy Erkinovich	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISHNI ZAMONAVIY YO'LLARI.....	332
Boboqulov S.B.	
TARJIMON DASTURLARIDA MULTITILLARNI TASNIFLASH: MAVJUD YONDOSHUVLAR VA MUAMMOLAR	338
Maxmudjanova Sayyora Yashin qizi	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ICHKI AXBOROT TIZIMLARINING MODERNIZATSIYASI ORQALI ISHLAB CHI QARISH JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH	343
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
NEFT VA GAZ TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI.....	349
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Quryozova Gulshan Akmal qizi	
УСИЛЕНИЕ РОЛИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В ДОСТИЖЕНИИ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	355
Гимранова О. Б.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA OPERATSIYALARINING AHAMIYATI.....	361
Yuldashev Fozil Turapovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI HISOBLASH VA UNDIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	373
Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li	
ВЛИЯНИЕ КАЧЕСТВА ПУБЛИЧНОГО ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ НА ДИНАМИКУ ЭКОНОМИКИ	377
Наимов Шохрух Шарофиддинович	
DIVIDEND SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDA SIFATI VA FOYDANI BOSHQARISHNING TA'SIRI.....	383
Eshev Furqat A'zamovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ УМНЫМ ГОРОДОМ НА БАЗЕ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ С ОРИЕНТАЦИЕЙ НА ЧЕЛОВЕКА	388
Рахимова Мадина Шухрат кизи	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA HISOB SIYOSATINING USLUBIY JIHATLARI	393
Toshpo'latov A. A.	
MOLIYAVIY HISOBOT ISHONCHLILIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	398
Zufarova Zilola Rahim qizi	
RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI.....	403
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	



RAQAMLI PUL TIZIMINING KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI

Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich

prof., DSc., Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti direktorining birinchi o'rinbosari
ORCID: 0000-0002-7430-3608
Email: [pulatovdilshod56@gmail.com](mailto: pulatovdilshod56@gmail.com)

Abdiyev Mansur Musurmonovich

Soliq, bojxona va tarif siyosatini takomillashtirish loyihasi yetakchi mutaxassisi,
mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0008-1448-7370
Email: [abdiyevmm@gmail.com](mailto: abdiyevmm@gmail.com)

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli pul tizimini joriy etishning korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashdagi institutsional ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli to'lovlar orqali moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirish, naqd pul aylanmasini qisqartirish hamda inson omiliga bog'liq korrupsion xavflarni cheklash imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida raqamli pul tizimining soliq ma'muriyatchiligi va davlat moliyaviy nazoratiga ta'siri baholanib, O'zbekiston sharoitida uni samarali joriy etish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli pul tizimi, raqamli valyuta, korrupsiyaga qarshi kurash, yashirin iqtisodiyot, institutsional islohotlar, moliyaviy shaffoflik.

Abstract. This article examines the institutional significance of implementing a digital currency system in combating corruption and the shadow economy. The study highlights the potential of digital payments to enhance financial transparency, reduce cash circulation, and limit corruption risks associated with human factors. Based on international experience, the impact of digital currencies on tax administration and state financial control is analyzed, and scientific conclusions as well as practical recommendations for the effective implementation of digital currency in Uzbekistan are proposed.

Key words: digital currency system, digital currency, anti-corruption, shadow economy, institutional reforms, financial transparency.

Аннотация. В статье анализируется институциональное значение внедрения цифровой денежной системы в борьбе с коррупцией и теневой экономикой. Рассматриваются возможности повышения прозрачности финансовых операций, сокращения наличного денежного оборота и снижения коррупционных рисков за счёт использования цифровых платежей. На основе зарубежного опыта оценивается влияние цифровых валют на налоговое администрирование и государственный финансовый контроль, а также формулируются научные выводы и практические рекомендации по внедрению цифровой валюты в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: цифровая денежная система, цифровая валюта, борьба с коррупцией, теневая экономика, институциональные реформы, финансовая прозрачность.

KIRISH

Bugungi kunda korrupsiya va yashirin iqtisodiyot iqtisodiy rivojlanishni cheklovchi eng muhim institutsional muammolardan biri bo'lib, davlat moliyaviy resurslarining samarasiz taqsimlanishi, soliq tushumlarining kamayishi hamda ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, naqd pul aylanmasining yuqori

ulushi, moliyaviy operatsiyalarning to'liq qayd etilmasligi va inson omiliga bog'liq boshqaruv qarorlari korrupsion xavflar hamda norasmiy iqtisodiy faoliyatning kengayishi uchun qulay muhit yaratadi. Mavjud nazorat va tartibga solish mexanizmlari ushbu muammolarni to'liq bartaraf etishda har doim ham yetarli samara bermayotgani iqtisodiy munosabatlarda shaffoflikni oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni taqozo etmoqda.

Shu sharoitda to'lov va hisob-kitob tizimlarini raqamlashtirish, xususan, raqamli pul tizimini joriy etish korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli pul tizimi moliyaviy operatsiyalarni elektron shaklda amalga oshirish, tranzaksiyalarni avtomatik ravishda qayd etish va ular ustidan samarali nazorat o'rnatish imkonini beradi. Bu esa naqd pul aylanmasini qisqartirish, inson omilini cheklash hamda korrupsion sxemalarni amalga oshirish imkoniyatlarini tizimli ravishda kamaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lovlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot hajmi nisbatan past bo'lib, soliq ma'muriyatchiligi va davlat moliyaviy nazorati samaradorligi yuqori darajada shakllangan. Biroq aksar tadqiqotlarda raqamli pul tizimi asosan texnologik innovatsiya sifatida baholanib, uning davlat moliyaviy boshqaruvi va nazorat tizimlariga kompleks institutsional ta'siri yetarlicha ochib berilmagan.

Mazkur maqolada raqamli pul tizimining korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashdagi ta'siri faqat texnologik yechim sifatida emas, balki davlat moliyaviy boshqaruvi, soliq ma'muriyatchiligi va budget nazoratini qamrab oluvchi institutsional mexanizm sifatida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli to'lovlar orqali moliyaviy operatsiyalarni to'liq qayd etishning soliq ma'muriyatchiligi va davlat moliyaviy nazoratiga ta'siri tizimli yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba va empirik ma'lumotlarga tayangan holda raqamli pul tizimining korrupsiya va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi amaliy mexanizmlari aniqlanib, ularni O'zbekiston iqtisodiy sharoitiga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda Markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotda alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllandi. Xususan, Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements (BIS)) tomonidan tayyorlangan tadqiqotlarda CBDC naqd pulga qo'shimcha shakl sifatida to'lov tizimlarining samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va pul muomalasida shaffoflikni ta'minlash imkoniyatiga ega ekani ta'kidlanadi [1].

Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotlarida raqamli pullarni joriy etish moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, davlat daromadlarini oshirish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan [2]. Shu bilan birga, keyingi tadqiqotlarda CBDCning moliyaviy barqarorlikka ta'siri, jumladan, bank depozitlarining chiqib ketishi va likvidlik bilan bog'liq xavflar alohida tahlil qilingan [3].

Yevropa Markaziy banki (ECB) tomonidan ishlab chiqilgan raqamli yevro konsepsiyasiga bag'ishlangan hisobotlarda CBDC naqd pulni to'liq almashtiruvchi emas, balki uni to'ldiruvchi to'lov vositasi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilgan [4]. Shuningdek, ECB ishchi hujjatlarida raqamli valyutalarning tijorat banklari orqali moliyaviy vositachilik jarayoniga ta'siri nazariy jihatdan asoslangan [5].

Jahon banki tadqiqotlarida CBDCni joriy etishda texnologik infratuzilma, huquqiy baza va davlat institutlarining tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ko'rsatilgan [6]. Mazkur manbalarda raqamli pul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish eng maqbul yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

Barqaror tokenlar va raqamli valyutalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi Moliyaviy barqarorlik kengashi hisobotlarida alohida o'rin egallaydi. Unda raqamli aktivlarning moliyaviy tizimga ta'siri va ularni samarali tartibga solish zarurati ta'kidlangan [7].

Korrupsiya va yashirin iqtisodiyot masalalari nuqtayi nazaridan Transparency International tahlillarida raqamli to'lovlar ulushining oshishi inson omilini qisqartirishi, moliyaviy nazoratni kuchaytirishi va korrupsion xavflarni kamaytirishi mumkinligi qayd etilgan [8]. Bu holat raqamli pul tizimining korrupsiyaga qarshi kurashdagi institutsional ahamiyatini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Xitoy Xalq banki tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarda raqamli yuan (e-CNY) orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalarning real vaqt rejimida monitoring qilinishi soliq va moliyaviy intizomni mustahkamlayotgani ko'rsatilgan [9].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili raqamli pul tizimlari nafaqat to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish, balki korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda davlat boshqaruvi va moliyaviy nazorat tizimlarini takomillashtiruvchi muhim institutsional islohot ekanini ko'rsatadi. Biroq milliy sharoitlarni hisobga olgan holda raqamli pul tizimining amaliy ta'sirini chuqur tahlil qilishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli pul tizimining korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashdagi institutsional ahamiyatini baholashda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish orqali Markaziy bank raqamli valyutalariga oid nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya hamda taqqoslama tahlil usullari qo'llanilib, raqamli pul tizimining to'lov infratuzilmasi, moliyaviy nazorat va soliq ma'muriyatchiligiga ta'siri kompleks baholandi. Olingan natijalar asosida umumiy xulosalar shakllantirilib, ular O'zbekiston sharoitiga tatbiq etildi hamda amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy bank raqamli valyutasini (CBDC) joriy etish jarayoni bir qator iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Avvalo, raqamli pul tizimi naqd va mavjud naqd pulsiz pul shakllari bilan o'zaro munosabatda bo'lib, pul aylanmasi tuzilmasini o'zgartirishi mumkin. Bu esa pul-kredit siyosati mexanizmlariga, ayniqsa, likvidlikni boshqarish va foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishi ehtimolini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, aholining raqamli moliyaviy savodxonligi yetarli darajada bo'lmagan sharoitda raqamli pul tizimini joriy etish iqtisodiy nomutanosibliklarga olib kelishi mumkin. Raqamli infratuzilmaning hududlar kesimida bir xil rivojlanmaganligi ham CBDCdan foydalanish imkoniyatlarini cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat raqamli pul tizimini joriy etishda bosqichma-bosqich va ehtiyotkor yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, CBDCni to'lov vositasi sifatida joriy etish to'lov tizimlari samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega. Raqamli pullar orqali amalga oshiriladigan to'lovlar tezkorligi, aniqligi va shaffofligi bilan ajralib turadi. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Bank tizimi nuqtayi nazaridan esa CBDC ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, raqamli pul tizimi bank xizmatlarining raqobatbardoshligini oshiradi va moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, depozitlarning ma'lum qismi Markaziy bank tizimiga o'tishi banklar resurs bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli xalqaro amaliyotda ikki bosqichli (intermediated) CBDC modellariidan foydalanish va raqamli hamyonlar uchun limitlar joriy etish maqbul yechim sifatida qaraladi.

Raqamli pul tizimining eng muhim institutsional (tizimli) jihatlaridan biri uning korrupsiya va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi roli hisoblanadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, to'lov operatsiyalarining raqamli shaklda amalga oshirilishi moliyaviy jarayonlarning to'liq qayd etilishini ta'minlaydi va davlat moliyaviy nazoratini kuchaytiradi. Bu esa soliq bazasini kengaytirish va budjet daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli to'lovlar inson omilini qisqartirib, korrupsion sxemalar uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni cheklaydi. Ayniqsa, davlat xaridlari, ijtimoiy to'lovlar va subsidiyalar tizimida raqamli pul tizimini qo'llash shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq mazkur ijobiy ta'sir samarali huquqiy baza va institutsional mexanizmlar mavjud bo'lgan taqdirdagina to'liq namoyon bo'ladi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli pul tizimlarini joriy etish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Ayrim mamlakatlarda CBDC pilot loyihalar orqali sinovdan o'tkazilmoqda, boshqalari esa raqamli valyutani cheklangan sohalarida qo'llashni afzal ko'rmoqda. Xususan, Xitoy tajribasida raqamli yuan orqali tranzaksiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish soliq va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yevropa mamlakatlarida esa raqamli yevro konsepsiyasi ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilmoqda. Yevropa Markaziy banki raqamli valyutani naqd pulga to'liq muqobil emas, balki uni to'ldiruvchi vosita sifatida ko'rib, bank tizimi barqarorligini saqlashga qaratilgan cheklovlar joriy etishni taklif qilmoqda. Ushbu tajribalar CBDCni joriy etishda bosqichma-bosqichlik va institutsional muvozanatni saqlash muhimligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli pul tizimini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, mazkur tizim korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq raqamli pul tizimining ijobiy ta'siri avtomatik tarzda yuzaga kelmaydi. Uning samaradorligi huquqiy tartibga solish, institutsional tayyorgarlik, bank tizimi barqarorligi va aholining raqamli moliyaviy savodxonligiga bevosita bog'liq. Shu sababli CBDCni joriy etish jarayoni ilmiy asoslangan, bosqichma-bosqich va muvozanatli yondashuvni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari raqamli pul tizimini joriy etish zamonaviy moliya tizimini transformatsiya qilishga qaratilgan muhim institutsional islohot ekanini ko'rsatdi. Tahlil va xorijiy tajriba asosida raqamli pul

iqtisodiy munosabatlarda shaffoflikni oshirish, moliyaviy operatsiyalarni to'liq qayd etish hamda inson omilini qisqartirish orqali korrupsiya va yashirin iqtisodiyotni cheklashda samarali instrument bo'lishi mumkinligi aniqlandi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari raqamli pul tizimining ijobiy ta'siri uni faqat texnologik yangilik sifatida joriy etish bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Uning korrupsiyaga qarshi institutsional ahamiyati davlat boshqaruvi, moliyaviy nazorat va soliq ma'muriyatchiligi tizimlariga qay darajada integratsiya qilinganiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, budget mablag'lari harakati, davlat xaridlari va ijtimoiy to'lovlar raqamli pul infratuzilmasi orqali amalga oshirilganda, korrupsion xavflarni sezilarli darajada qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi.

Biroq Markaziy bank raqamli valyutasini (CBDC) joriy etish bank tizimi barqarorligi, kiberxavfsizlik va ma'lumotlar maxfiyligi bilan bog'liq muayyan xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli raqamli pul tizimini joriy etish ehtiyotkor, bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Bunday yondashuv raqamli pul tizimining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash bilan birga, moliyaviy barqarorlikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli pul tizimi korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda universal yechim emas, balki davlat boshqaruvi islohotlari, huquqiy tartibga solish va institutsional tayyorgarlik bilan uyg'un holda joriy etilganda samara beruvchi kompleks instrument sifatida baholanadi.

O'zbekiston uchun takliflar. Yuqoridagi xulosalar va xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda Markaziy bank raqamli valyutasini joriy etish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, raqamli pul tizimini avvalo cheklangan pilot loyihalar orqali sinovdan o'tkazib, keyinchalik olingan natijalar asosida bosqichma-bosqich joriy etish zarur. Bu yondashuv tizimli xatarlarni kamaytirish va institutsional tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, raqamli pul tizimini davlat xaridlari, ijtimoiy to'lovlar, subsidiyalar hamda budget mablag'lari harakati bilan to'liq integratsiya qilish orqali korrupsion xavflarni qisqartirish mumkin.

Uchinchidan, raqamli pul orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalarni soliq organlari axborot tizimlari bilan uyg'unlashtirish yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish va soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, raqamli so'mni joriy etishda tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan ikki bosqichli (intermediated) modelni tanlash bank tizimi barqarorligini saqlash va depozitlar chiqib ketishi xavfini kamaytirish uchun muhim hisoblanadi.

Beshinchidan, raqamli hamyonlar bo'yicha hajm limitlari, foiz hisoblanmasligi kabi cheklovlarni belgilash orqali tijorat banklarining resurs bazasini himoya qilish mexanizmlarini joriy etish zarur.

Oltinchidan, aholi va tadbirkorlik subyektlarining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish, raqamli valyutadan xavfsiz foydalanish bo'yicha axborot-tushuntirish ishlari va o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish raqamli pul tizimiga bo'lgan jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

Yettinchidan, raqamli pul muomalasini tartibga soluvchi huquqiy va institutsional bazani takomillashtirish, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash hamda kiberxavfsizlik standartlarini kuchaytirish zarur. Shuningdek, raqamli so'mdan foydalanishda "cheklangan anonimlik" tamoyilini huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Sakkizinchidan, raqamli so'mni joriy etish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni xalqaro moliyaviy institutlar va yetakchi konsalting kompaniyalari tavsiyalari asosida ishlab chiqish hamda uni doimiy ravishda yangilab borish raqamli pul tizimini samarali joriy etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bank for International Settlements. (2020). Central bank digital currencies: Foundational principles and core features. BIS. <https://www.bis.org/publ/othp33.htm>
2. International Monetary Fund. (2020). Digital money across borders: Macro-financial implications (IMF Policy Paper). IMF. <https://www.imf.org/en/Publications/Policy-Papers/Issues/2020/10/17/Digital-Money-Across-Borders-Macro-Financial-Implications-49823>
3. International Monetary Fund. (2025). Evaluating the implications of central bank digital currency for financial stability (FinTech Notes). IMF. <https://www.imf.org/en/Publications/Fintech-Notes/Issues/2025/11/12/Evaluating-the-Implications-of-CBDC-for-Financial-Stability-571743>
4. European Central Bank. (2020). Report on a digital euro. ECB. https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/other/Report_on_a_digital_euro~4d7268b458.en.pdf
5. Ahnert, T., & Monnet, C. (2021). Central bank digital currency and bank intermediation (ECB Working Paper No. 2713). European Central Bank. <https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpwps/ecb.wp2713~91ddff9e7c.en.pdf>
6. World Bank. (2021). Central bank digital currency: Background technical note. World Bank Group. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/603451638869243764/pdf/Central-Bank-Digital-Currency-Background-Technical-Note.pdf>
7. Financial Stability Board. (2020). Regulation, supervision and oversight of "global stablecoin" arrangements. FSB. <https://www.fsb.org/2020/10/regulation-supervision-and-oversight-of-global-stablecoin-arrangements/>



8. Transparency International. (2021). Corruption risks in digital payments. Transparency International. <https://www.transparency.org/en/publications/corruption-risks-in-digital-payments>
9. People's Bank of China. (2021). Progress of research & development of e-CNY in China. PBoC. <http://www.pbc.gov.cn/en/3688110/3688175/4157443/index.html>
10. Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinovna. Rasmiy rivojlanish yordami (official development assistance, ODA) orqali O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarish (Public Financial Management, PFM) tizimini takomillashtirish. Muhandislik va iqtisodiyot, 2025-yil, dekabr, № 12-son, 24-bet. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=9026156213652527646&btnI=1&hl=ru>
11. Pulatov Dilshod, Kaxxarova Gulzara. Xorij tajribasi asosida O'zbekistonda davlat aktivlari bo'yicha interaktiv ma'lumotlar bazasini yaratish orqali budjet xarajatlarini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish. Muhandislik va iqtisodiyot, 2025-yil, dekabr, № 12-son, 989-bet. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=10467001680098841808&btnI=1&hl=ru>
12. Pulatov, Dilshod. Issues in development of state financial control in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics & Business, Volume 2, 2009. <https://www.pieb.cz> <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=12705978966325535035&btnI=1&hl=ru>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100